

### Stiv Jobs Muvaffaqiyatining 12 Sirli Qoidasi.

Stiv Jobs — hozirgi kunda dunyoning eng kuchli ishlab chiqaruvchi kompaniyalaridan birining asoschisi. Uning muvaffaqiyatlari afsonaga aylandi. U asrab olingan bola, o'smirligida kollejdagi 6 oy o'qigandan so'ng, uni tashlab ketgan, shunday bo'lsada do'stlarining yotoqxonasida polda yotib yurgan, qornini to'ydirish uchun «Cocacola»dan bo'shagan idishlarni 5 sent evaziga yig'ib sotgan insondir. Bu inson — «Apple» va «Pixar» animatsiya studiyasini tuzgan. Quyida uning 12 muvaffaqiyatga erishish qoidasi keltirilgan:

1) Sevimli ishing bilan shug'ullan. Haqqoniy harakat qil. Haqiqiy buyuk ishlar qilishning yagona yo'li, bu — sevimli ish bilan shug'ullanish.

2) Boshqacha bo'l. Boshqacha o'yla. Harbiy matros bo'lgandan ko'ra, qaroqchi bo'lgan afzal.

3) Qodir bo'lganingdan ko'ra yaxshiroq qil. Har qanday ishda imkonidagidek muvaffaqiyatga erishishing mumkin. Uxlama! Muvaffaqiyat yanada kuchli muvaffaqiyatni olib keladi. Muvaffaqiyatlardan rohatlan! Mukammallashishni sevadigan insonlar bilan ishla!

4) SWOT-tashxis o'tkaz. Yangi kompaniyang paydo bo'lsa, oddiy qog'ozga uning kuchli va kuchsiz taraflarini yozib chiq. Kompaniyadan chirigan olmalarni chiqarib tashlashdan qo'rqma.

5) Qarorlarni tezda qabul qil. Har safar yangi katta maqsadlarga intil. Tez va hal qiluvchi harakatlarni talab qiluvchi g'oyalar yig'indisini top va ushbu oynaga sakra. Eng qiyini — birinchi qadamni tashlash. Sunchaki birinchi qadamni tashla. Hissiyotlaring va yuragingni shunga majbur qil.

6) Kichigidan boshla, lekin kattasi haqida orzu qil. Bir vaqtda ko'pgina